

Information About the Components of Music and their Relationships

*Altynay Bekpolatova*¹

Annotation: An artistic image is reflected in musical works in a unique way, that is, as a synthesis of certain sounds and tones. In musical works, form and content are important as elements that complement each other. Music has one or another content that is revealed through musical images.

Key words: Artistic image, form, works, music, innovative technologies.

Xar qanday shakl va mazmundagi musiqa rang-barang tarkibiy qismlardan tashkil topadi va musiqa nazariyasi - musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, musiqa asarlari tahlili, polifoniya va cholg'ushunoslik singari bir necha tarmoqlarga ajraladi. Musiqaning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'lanishlari haqidagi ma'lumotlar musiqa va uning nazariyasiga oid fanlarda aks ettirilgan. Mazkur fanlarning boshlang'ich kursi musiqaning elementar nazariyasidir.

San'at mazmuni - hayot, atrofimizdagi voqealik, inson va uning ichki dunyosi o'y-fikrlari, his-tuyg'ularidir. San'at inson faoliyatining boshqa turlaridan ko'ra badiiy obrazlarni yaratish orqali voqelikni o'zlashtiradi. U kishining hissiyoti va ongiga bevosita ta'sir qiluvchi shaklda olamni g'uyoki yangidan yaratadi. Lekin, san'atkor hayotni, xodisalar va narsalarni nusxa qilib ko'chirmaydi. U biror obrazga xos bo'lgan eng umumiy, tipik xususiyatlarni saralab olib, ularning hammasini tushunib olib, obraz qiyofasini o'zgartiradi, so'ng uni rasm, she'r, musiqa asari shaklida gavdalanitiradi. [1.B.43]

Musiqa (ilhom parilari san'ati) - ohang (intonatsiya) san'ati, sadolarda ifodalangan voqealikning badiiy aksidir. U borliqni o'ziga xos tarzda aks etib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o'zgartirishda yordam beradi. Ma'lumki, musiqa jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Musiqa - insonning turmush tarzi va ijtimoiy hayotida, mehnat va dam olish chog'larida albatta ishtiroq etadigan alomat sifatida xizmat qilib, odamni ma'naviy qadriyatlarga erishtiradigan noyob vositadir.

Albatta, har qanday san'atkorning asari muallifning shahs asoratini o'z ichida saqlab qoladi. Chunki, tashqi dunyoning ob'ektiv materiali san'atkorning ongida alohida qayta ishlab chiqilib, original, o'ziga xos ijod bo'lib qayta vujudga keladi. Biroq, shu bilan birga har bir ijodiy asar jamoat ongining mahsuloti deb ham hisoblanadi. Negaki, u muayyan bir ijtimoiy psixologiya, mamlakat, tarixiy hodisa bilan bog'liq bo'ladi.

Ammo san'at turlari hayotning turli-tuman tomonlarini bir xil darajada tasvirlashga qodir emas. San'atning har bir turi o'ziga hos vositalar va ifodalash tamoyillari bilan ajralib turadi. Ho'sh, musiqa san'ati o'zi nima? Uning maqsadi, vazifalari nimadan iborat? Musiqa boshqa san'at turlari bilan yaqin munosabatlarda bo'lishi shubhasizdir. Ularning jonli aloqalari musiqaga hos intonatsion asosi adabiyot bilan yaqinligi, ritmik uyush qoqligi she'riyat va raqs san'atiga o'xshashligi, asarlarining mutanosib tuzilishi arxitektura shakllariga muvofiqligida ko'rinadi.

Badiiy obraz musiqa asarlarida o'ziga xos tarzda, ya'ni, ma'lum tovushlar va ohanglar sintezi sifatida aks ettiriladi. Musiqa asarlarida shakl va mazmun bir-birini to'ldiruvchi unsurlar sifatida muhim ahamiyatga egadir. Musiqa musiqiy obrazlar orqali ochib beriladigan u yoki bu mazmunga ega bo'ladi.

Bunda biz ma'lum bir darajadagi nisbiylik va ma'lum bir darajadagi aniklik asosida tuzilgan va shakllangan musiqa nazariyasi fani orqali musiqaning ko'p jihatlari tushinishimiz va tushuntirishimiz mumkin. [2.B.131-132]

"Texnologiya"- grekcha "techne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, ta'limot manosi anglatadi. Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat o'zgarishiga olib keluvchi tizimli usullar yig'indisidir.

"Innovatsiya" - inglizcha innovation (yangilik kiritish, yangilik yaratish, novatorlik) so'zidan olingan bo'lib, novatsiyalarga investitsiyalar sifatida talqin qilinadi. [3.B.95]. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar bu - jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik tasir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi -talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchining bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishi uchun balkim fil'm, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq.

Bundan kelib chiqqan holda, talaba ma'lumotga nisbatan ma'lum bir madaniyat darajasini yoki axborot madaniyatini

¹ Teacher of Nukus branch State Institute of Arts and Culture Uzbekistan

o`zlashtirishi kerak.

Fanlarni o`rganish natijasida talabalar:

- axborot va axborot resurslarining rivojlanish tarixi, ularning zamonaviy dunyoda ahamiyati, axborotni olish va ishlatishning maqsad va vazifalari, shuningdek, uning axborot muhitida tutgan o`rni va uning taqdimoti to`g`risida taqdimot o`tkazish. boshqaruv;
- axborot muhiti yoki axborot makonining tuzilishini bilish, shu jumladan turli xil axborot oqimlari, turli xil axborot tizimlari va axborot resurslari, texnik telefon uskunasidan foydalanish tamoyillari va yondashuvlari;
- axborot resurslarini tasniflash va ularning xususiyatlarini ajrata olish, axborot resurslaridan foydalanish sifati va samaradorligini baholash, turli manbalardan, shu jumladan elektron, hujjatsiz, hujjatsiz raqamli va tahliliy usullardan) ma`lumotlarni olish va uni kerakli tarzda taqdim etish. Videodan foydalanish, uning faoliyatida ko`p sonli dasturlar bo`lgan kompyuter axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Hozirgi vaqtda semantik tahlil keng qo`llanilib, tabiiy tildagi matn ma`nosini ayrim formallashtirilgan semantik (semantik) tilda yozuv shaklida ifodalash uchun xizmat qiladigan operatsiyalar majmuini qamrab oladi. Bunday holda matnni inson tomonidan tushunish jarayoni modellashtiriladi. Modellashtirishning adekvatligi (tabiiy tildan semantikaga tarjimaning to`liqligi va aniqligi) semantik tilning imkoniyatlariga, tarjima qoidalarini ishlab chiqishga, tabiiy til birliklarining semantik birliklar bilan korrelyatsiyasining aniqligiga bog`liq.

Semantik tahlil avtomatik tarjima bosqichlaridan biri bo`lib, unda semantik til vositachi til vazifasini bajaradi. Semantik tahlilning bir turi axborot-qidiruv tizimlarida indeksatsiya, ya`ni axborot tillari bo`yicha hujjat va so`rovlar mazmunini ifodalashdir.

Semantikadan farqli o`laroq, sintaktik yondashuv (yoki sintax - taktika) imo-ishora tizimlarini aloqa va aloqa vositasi sifatida qabul qilish bilan bog`liq har qanday talqin va muammolardan qat`iy nazar, imo-ishora tizimlarini sintaksisi nuqtai nazaridan o`rganishga qaratilgan. Bu holda tahlil predmeti: simvollarning yuzaga kelish chastotasi, ya`ni kod belgilari, ular orasidagi bog`lanishlar, ularning ketma-ketlik tartibi, tarkibiy tashkil etilishi, xabarlar hosil bo`lishi mumkin bo`lgan ifodalarni tuzish va o`zgartirish qoidalari. Sintaktikada xabarlar mazmundan, ma`nodan abstraktlashgan simvollar hamda ularning qabul qiluvchi uchun amaliy qiymati sifatida qaraladi. Tabiiy tildagi sintaksemalar sintaksisga mos keladi.

Texnologik xarita qanday tuzilgan bo`lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo`lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to`liq o`z ifodasini topgan bo`lishi kerak. [4.B.213]

Ta`limda yo`l qo`yilayotgan bunday kamchiliklarni bartaraf etish omillari quyidagicha: - yangi innovatsion texnologiyalarni o`rganish uchun o`qituvchilarni qayta tayyorlashni tashkil etish; multimedia o`quv qo`llanmalari ishlab chiqqan o`qituvchilarni rag`batlantirishni; internet tarmoqi orqali onlayn konferentsiyalar, seminarlar va boshqa o`qitish tadbirlarini tashkil etish; ta`lim muassasalarida multimedia sinflari, laboratoriyalar va kutubxonalar sonini ko`paytirish; internet va boshqa elektron o`quv vositalari bo`yicha o`qitish akademik soatlari miqdorini ko`paytirish; tahsil oluvchilar bilan zamonaviy axborot texnologiyalari haqida ko`proq ilmiy tanish tiruv ishlarini olib borish.

SHuni e`tiborga olib, xar-xil komp`yuter dasturlari asosida tuzilgan musiqiy o`yinlari yordamida tashkil etish, yoki **“Rower roint!”** dasturlarini qo`llash ta`limga innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni yana bir yutug`i sifatida qarashimiz mumkin. Bundan ko`zlangan maqsad: komp`yuterdan foydalanib o`quvchilarning bilim saviyalarini oshirish, mavzu mohiyatini aniq idrok etishga yordam berish, sof kuylashga o`rgatish, musiqaga bo`lgan qiziqishlarini oshirish, musiqa ta`limini texnik ta`lim bilan bir-biriga bog`lashdir. Zamonaviy talimni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o`quvchilarning o`quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda talim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo`llash borasida katta tajriba to`plangan bo`lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Акбаров И.А. Музыка луғати.- Т.: Ўқитувчи, 1997.
2. Апраксина О.А. Методика музыкального воспитания в школе. Учебное пособие. - М.: Просвещение, 1983.
3. Ардабаева Б.К., Белошническо Е.В., Дандыбаева Г.Т., Мишутина Е.И. Методические рекомендации по организации и планированию экспериментальной работы в организациях образования. // - Костанай, 2009 г.
4. Рахимов Қ. Музиканинг элементар назарияси. (Маълумотнома), Тошкент, “Музыка”, 2007.